

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in  
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



[publishscience.uz](http://publishscience.uz)



[publish\\_science\\_journal@mail.ru](mailto:publish_science_journal@mail.ru)



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

## SHUKUR XOLMIRZAYEV VA YASUNARI KAVABATA HIKOYALARIDA QAHRAMON XARAKTERINI YARATISHDA BADIY NUTQNING O'RNI

Xakimova Feruzaxon Xatamjon qizi

CAMU xalqaro tibbiyot universiteti, o'qituvchi.

e-mail: [feruzamadgoziyeva@gmail.com](mailto:feruzamadgoziyeva@gmail.com) ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-2687-4675>

### Annotatsiya.

Ushbu maqolada badiiy nutqning qahramon xarakterini yaratishdagi o'rni Shukur Xolmirzayev va Yasunari Kavabata hikoyalari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Unda muallif nutqi, psixologik tasvir, badiiy detal va ramziy ifoda orqali qahramonning ichki dunyosi hamda individual xususiyatlari ochib berilishi yoritiladi. Shuningdek, o'zbek va yapon hikoyachiligida nutqiy vositalarning xarakter yaratishdagi o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** badiiy nutq, muallif nutqi, qahramon xakteri, psixologik tasvir, badiiy detal, ramziy ifoda, hikoyachilik, qiyosiy tahlil.

## РОЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ В СОЗДАНИИ ХАРАКТЕРА ГЕРОЯ В РАССКАЗАХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА И ЯСУНАРИ КАБАТЫ

Хакимова Ферузaxon Хатамjon кизи

Международный медицинский университет CAMU, преподаватель.

### Аннотация.

В данной статье на примере рассказов Шукура Холмирзаева и Ясунари Кабаты проводится сравнительный анализ роли художественной речи в создании характера персонажа. Рассматриваются авторская речь, психологическое изображение, художественная деталь и символическое выражение как основные средства раскрытия внутреннего мира и индивидуальных особенностей героя. Также выявляются сходства и различия в использовании речевых средств в узбекской и японской прозе.

**Ключевые слова:** художественная речь, авторская речь, характер персонажа, психологическое изображение, художественная деталь, символическое выражение, рассказ, сравнительный анализ.

## THE ROLE OF ARTISTIC LANGUAGE IN SHAPING THE CHARACTER OF THE PROTAGONIST IN THE SHORT STORIES OF SHUKUR XOLMIRZAYEV AND YASUNARI KAWABATA

Xakimova Feruzaxon Xatamjon qizi

CAMU International Medical University, Lecturer.

### Abstract.

This article presents a comparative analysis of the role of artistic speech in character creation based on the short stories of Shukur Kholmiraev and Yasunari Kawabata. It explores authorial narration, psychological depiction, artistic detail, and symbolic expression as key tools for revealing the inner world and individual traits of literary characters. The study also identifies similarities and differences in the use of narrative techniques in Uzbek and Japanese prose.

**Keywords:** artistic speech, authorial narration, character building, psychological depiction, artistic detail, symbolic expression, short story, comparative analysis.

**Kirish.** Badiiy nutq adabiyotda qahramon xarakterini yaratish va uning ichki olamini ochib berishda asosiy estetik vositalardan biri hisoblanadi. U muallif nutqi, psixologik tasvir, badiiy detal va ramziy ifoda kabi turli shakllar orqali obrazning individual xususiyatlarini namoyon etadi. Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev va Yasunari Kavabata hikoyalari misolida badiiy nutqning xarakter yaratishdagi funksional imkoniyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va yapon hikoyachiligida muallif nutqining qahramon ruhiyatini ochishdagi o'xshash va farqli jihatlari yoritiladi. Ushbu yondashuv badiiy nutqning obraz yaratishdagi estetik va uslubiy ahamiyatini yanada chuqurroq

anglashga xizmat qiladi.

Badiiy nutqning tipologiyasi, uning tur va shakllarini o'rganish masalasi rus adabiyotshunosligida tizimli ravishda rivojlangan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada V. V. Vinogradov, G. O. Vinokur, M. Baxtin, A. Fedorov, V. Kojinov kabi yirik olimlar tomonidan badiiy matn tilining turli jihatlarini chuqur tahlil qilingan [1:601].

Xususan, M. Baxtin badiiy nutqni uning dialogik tabiati asosida tahlil qilib, prozaik nutqni uch asosiy tipga ajratadi: to'g'ridan to'g'ri nutq, obyektivlashtirilgan nutq va ikki ovozli nutq [2:181–190]. Olim ayniqsa ikki ovozli nutq turiga alohida e'tibor qaratib, unda bir nutq doirasida ikki semantik pozitsiya va ikki ongning o'zaro munosabati namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Mazkur fikr badiiy nutqning murakkab va ko'p qatlamli tabiatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ikki ovozli nutq orqali qahramon ongidagi ichki ziddiyatlar hamda turlicha fikrlar to'qnashuvi ifodalaniib, bu holat qahramon xarakterini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Baxtin tomonidan ilgari surilgan ushbu tasnif keyingi adabiyotshunoslar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, A. Fedorov badiiy nutq turlarini yanada aniqlashtirib, uni quyidagi ko'rinishlarga ajratadi: muallif bayoni (tasvir va tavsifni o'z ichiga olgan nutq), personajlarning bevosita nutqi (dialog), ichki nutq hamda o'zganing nutqini uchinchi shaxs orqali beruvchi noxususiy-bilvosita nutq [3:123–142]. Olim ayniqsa ushbu so'nggi nutq turida muallif va qahramon nutqining o'zaro qo'shilib ketishini ko'rsatib, uning badiiy tasvir imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham mazkur tasniflar rivojlanib, takomillashtirilgan. Xususan, badiiy nutq tiplari va shakllarining tadriji, ularning yangilanish jarayoni hamda o'rni masalalari professor Y. Solijonov tomonidan ilk bor tizimli tarzda o'rganilgan. Olim XX asrning 80–90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi masalalarini tadqiq etish davomida prozaik nutqning tip, tur va shakllariga oid o'ziga xos ilmiy qarashlarni ilgari suradi. Y. Solijonov asrning so'nggi yigirma yilligida yaratilgan o'zbek badiiy prozasini badiiy rang-barang tip va shakllari nuqtai nazaridan tahlil qilib, uni quyidagicha tasniflaydi:

1. Avtor (muallif) nutqi;
2. Dialog;
3. Monologik nutq;
4. Ichki nutq;
5. Ko'p ovozli nutq [4:4].

Shu bilan birga, S. Mamajonov, A. Rahimov, D. To'rayev, G. Imomova va Z. Rahimovlarning ilmiy tadqiqotlarida ham adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari qatorida badiiy nutqning turli ko'rinishlari yuzasidan muhim mulohazalar bildirilganini qayd etish lozim [5:52].

Yapon tilshunosligida badiiy nutq va qahramon xakteri o'rtasidagi bog'liqlik "yakuwarigo" ("rolga xos nutq yoki qahramonga xos til") tushunchasi orqali izohlanadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, badiiy matnda qahramonning nutqi uning individual va ijtimoiy xususiyatlarini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Xususan, Satoshi Kinsui qahramon nutqidagi leksik va grammatik vositalar orqali uning jinsi, yoshi, ijtimoiy maqomi, kasbi va hatto xarakter tipini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi [6:96].

Mazkur yondashuvga ko'ra, badiiy nutq tasodifiy emas, balki muayyan xarakter tiplarini yaratishga xizmat qiluvchi stilizatsiyalangan, ya'ni sun'iy yaratilgan tizimdir. Qahramon nutqida qo'llaniladigan til birliklari (so'zlar, grammatik shakllar, intonatsiya) ularning stereotipik obrazlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy asarda nutq orqali qahramon tipi o'quvchi tomonidan tez va aniq tanib olinadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar badiiy nutqning qahramon xarakterini yaratishdagi o'rni va funksional imkoniyatlarini asoslab beradi. Nutq shakllari – dialog, monolog, ichki nutq hamda ko'p ovozli nutq – nafaqat kommunikativ vosita, balki obraz individualligini ochib beruvchi muhim poetik omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, badiiy asarni tahlil qilishda aynan nutqiy vositalarning qo'llanishi va ularning xarakter yaratishdagi roli alohida e'tibor talab etadi.

Mazkur nazariy asoslardan kelib chiqib, endi badiiy nutqning amaliy qo'llanilishi Shukur Xolmirzayev va Yasunari Kavabata hikoyalari misolida ko'rib chiqiladi. Ushbu adiblar ijodida nutq shakllarining turli ko'rinishlari qahramon xarakterini ochishda o'ziga xos funksional yuklama kasb etadi. Xususan, Sh. Xolmirzayev hikoyalarida nutq ko'proq hayotiylik va ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda berilsa, Y. Kavabata asarlarida nutq qahramonning ichki kechinmalari va psixologik holatini yoritishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, keyingi tahlilda ikki adib hikoyalarida qo'llanilgan badiiy nutq shakllari, ularning stilistik xususiyatlari hamda qahramon xarakterini ochishdagi o'rni qiyosiy jihatdan o'rganiladi.

Badiiy asarning muhim komponentlari – xarakter, sharoit, g'oya, syujet, kompozitsiya, personajlar ruhiyatini tasvirlash, konflikt, portret, peyzaj – barchasi til orqali yoki, aniqrog'i, muallif nutqi orqali namoyon bo'ladi. Badiiy nutq tiplaridan eng asosiysi muallif nutqi bo'lib, uning o'zbek adabiyoti tarixida shakllanish jarayoni va o'ziga xos xususiyatlari adabiyotshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Chunki badiiy asar syujeti va kompozitsiyasini tashkil etish, voqelikni bayon qilish usullarining rang-barangligi, xarakter yaratish va u mansub bo'lgan sharoitni tasvirlash, qahramonlarning ichki olamini ishonarli ochish, har bir voqea-hodisaga o'zining aniq munosabatini anglatish bevosita muallif nutqi zimmasiga tushadi [7:31]. Shu jihatdan muallif nutqining badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini o'rganish hamda uning qahramon xarakterini yaratishdagi o'rnini aniqlash adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Britaniyalik yaponshunos olim Michael Watson yapon hikoyachiligini tarixiy taraqqiyot jarayonida tahlil qilib, muallif nutqi (narrator ovozi) badiiy asarda muhim tashkil etuvchi unsur ekanini ta'kidlaydi. Olim, ayniqsa, Heian davri (VIII–XII asrlar) hikoyachiligini, jumladan, "Kojiki", "Ise monogatari", "Genji monogatari" kabi asarlarni tahlil qilish asosida, hikoyada mustaqil ovoz mavjud bo'lib, u voqealarni tanlash, izohlash va baholash funksiyasini bajarishini ko'rsatadi [8:265–266]. Watsonning fikricha, yapon adabiyotida narrator faqat voqeani bayon qiluvchi emas, balki badiiy matnni tashkil

etuvchi faol nutqiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, "Genji monogatari" misolida narratorning ijtimoiy va genderga xos ovozi, uning izoh berish va voqealarga munosabat bildirish xususiyati muallif nutqining estetik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Olimning ushbu qarashlari yapon adabiyotining keyingi taraqqiyot bosqichlarida ham o'z ahamiyatini saqlab qolganini kuzatish mumkin. Jumladan, Yasunari Kavabata hikoyalarida ham muallif nutqi syujetni harakatlantiruvchi yoki voqealarni bog'lovchi vositagina emas, balki qahramon xarakterini ochuvchi muhim badiiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Adib ko'pincha personajlarning ichki kechinmalarini bevosita sharhlashdan ko'ra, muallif nutqi tarkibiga singdirilgan psixologik tasvirlar, badiiy detallar, peyzaj va ramziy obrazlar orqali ularning ruhiy olamini ochishga intiladi. Bu usul "Mehrqush" hikoyasida ham muhim badiiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Asarda muallif nutqi orqali qahramonning hayotiy vaziyati va ijtimoiy muhiti ham keng yoritiladi. Masalan, ota-onasi ajralishi, o'gay ona bilan munosabat, ukaning xatti-harakatlari haqidagi ma'lumotlar muallif tomonidan izchil bayon qilinib, Yosikoning xarakteriga ta'sir etuvchi omillar sifatida aks ettiriladi. Bu yerda muallif nutqi nafaqat voqealarni bayon qiladi, balki qahramonni shakllantiruvchi ijtimoiy asosni ham keltirib o'tadi.

"Otasi Yosiko to'rtga, ukasi ikkiga chiqqanida onasi bilan ajrashgandi. Onasi chiroyli kiyinishni yaxshi ko'rar, buning ustiga o'lgudek isrofgar ayol edi, biroq faqatgina shu sababli otasi ajrashmaganini u g'ira-shira fahmlar, nazarda buning boshqa, jiddiy sabablari bor edi" [9:107]. Muallif voqealarni xolis bayon qilayotgandek ko'rinsa-da, aynan shu bayon orqali qahramonning ruhiy holati va xarakter xususiyatlari murakkab oila muhitida shakllanganligini ko'rsatadi. Yosikoning beqarorligi va hissiy nozikligi bolaligidan qolgan ruhiy zarbalar natijasi ekani ma'lum bo'ladi.

Ko'zlari ko'rmay qolgan buvisiga nisbatan munosabati muallif nutqi orqali quyidagicha bayon qilinadi: "Buvisining ko'zi yaxshi ko'rmas edi... ba'zan u oynavand eshik oldida to'xtab qolardi-da, barmoqlarini oynadan tushayotgan quyosh nurlariga solib uzoq ko'zdan kechirardi... Shunday paytlarda Yosikoning buvisiga joni achib, xavotirga tushar, shu vaziyatdan xalos qilish uchun uni chaqirmoqchi bo'lar edi-yu, biroq bunga botinolmas, aksincha, ko'zdan yiroq yerda yashiringanicha jimgina kuzatib turardi" [9:106]. Bu yerda muallif qahramonning xarakterini bevosita emas, balki tasviriy va psixologik yo'l bilan ifodalab beradi. "Joni achib", "xavotirga tushar" kabi ifodalar qahramonning boshqalarga nisbatan befarq emasligini, rahmdil va mehribonlik xususiyatlarini namoyon etadi.

Hikoyada muallif nutqi tabiat tasviri bilan uyg'unlashib ketadi, qahramon xarakterini ramziy jihatdan ham boyitadi. Ona qush va polapon o'rtasidagi munosabat Yosikoning ichki mehrga bo'lgan ehtiyoji bilan parallel tarzda tasvirlanadi. "Aftidan, bu nimjon qushchaning holi yo'q edi" jumlasini faqatgina onasini yo'qotib qo'ygan polaponning ahvolini emas, Yosiko qalbidagi bo'shliq, ichki qo'rquv ifodasi sifatida aks etadi. Hikoyaning kulminatsion qismi muallif tomonidan quyidagicha ifodalanadi: "Polapon boshini shodon silkib, qanotchalarini potir-potir qoqqancha onasiga erkalan boshladi... Yosiko bo'lsa, ich-ichida otasi bilan o'gay onasi tezroq kelib, shu manzarani ko'rishga ulgurishlarini istardi" [9:111]. Muallif detal orqali insoniy munosabatlar mohiyatini ochishga urinadi, polaponning ona mehridan bahramand bo'lishi Yosikoning ichki ehtiyojlari – mehr, oilaviy birlik va ruhiy yaqinlikka bo'lgan sog'inchini ifodalaydi. Bu esa Yosiko xarakteriga xos ezigulik, oilaparvarlik xususiyatlarini namoyon etadi.

Ko'rinib turibdiki, hikoyada muallif nutqi ramziy va psixologik tasvir vositasi orqali Yosiko xarakterining eng nozik qirralarini ochib beradi.

Shukur Xolmirzayevning "Baxtli bo'linglar" hikoyasida qahramon xarakterini yaratishda muallif nutqi yetakchi badiiy vosita sanaladi. Yozuvchi obrazning ichki olamini bevosita izohlashdan ko'ra, muallif bayoni, ruhiy tasvir, peyzaj, detal va ichki monolog elementlari orqali Zeboning xarakterini bosqichma-bosqich ochib boradi. Shu jihatdan hikoyada muallif nutqi estetik va psixologik imkoniyatlarini namoyon etib keladi.

Hikoya boshlanishidayoq muallif Zeboning ruhiy olamini tashqi manzara bilan parallel tasvirlaydi: "Tashqarida lopillab laylakqor yog'ardi. Zebo buvisining tanchasida mudrab o'tirar, uning ko'z oldidan qachonlardir kitoblarda o'qigani yoxud odamlar tilidan eshitgan bir manzara o'tar edi: derazalar! Deraza oynalari lampochkalar nuriga yo'g'rilib ko'rinadi. Ichkaridagi noz-ne'matlarga to'la stol atrofida tik turgan odamlar qo'llaridagi qadahlarini cho'qishtirib, bir-biriga shirin orzu-tilaklar bildirishyapti" [10:316]. Muallif lopillab yog'ayotgan laylakqor orqali qahramon qalbidagi sokinlik va umidlarga to'la kayfiyatni ifodalab beradi. Zeboning Yangi yil haqidagi tasavvurlarida jamoaviy yig'inlarga va insonlararo mehr-muruvvatli munosabatlarga ixlosmandligi seziladi. Muallif xarakter yaratishda portret detalidan ham mohirona foydalanadi: "Palto unga uzunlik qilar, guldor shol ro'mol uni katta qilib ko'rsatar, ichi mo'ynali etikchasining qo'ng'i keng, qizga yarashmas edi" [10:317]. Ushbu tasvir orqali Zeboning sodda qishloqi qiz ekani, hali hayot tajribasi kamligi va bolalarcha beg'uborligi ochiladi. Ayniqsa, "qizga yarashmas edi" birikmasida muallifning yashirin achinish ohangi seziladi, bu esa muallif nutqining emotsional-ekspressiv xususiyatini namoyon qiladi.

Hikoyaning kulminatsion qismida muallif Zeboning Yangi yilni deraza oldida yolg'iz kutib olish holatini quyidagicha ifodalaydi: "...Ana odamlar u yoqda... Zebo qo'lidagi qadahni oldinga uzatdi: – Baxtli bo'linglar! – dedi. Ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. – Omon bo'linglar, – shivirladi u va garangsigan ko'yi so'z aytishda davom etdi: – Siz ham, siz ham... Akajon, siz ham! Yangajon, siz ham omon bo'ling! Ena! – beixtiyor allaqayoqlarga qarab oldi. – Otajon, siz ham. U baxtiyor edi" [10:323]. Ushbu parcha orqali muallif qahramonga xos eng muhim jihatlarni – uning samimiyligi, ruhiy pokligi, mehrga tashnalligi va insonlarga nisbatan beg'araz muhabbatini ochib beradi. "Tirqirab yosh chiqib ketdi" ifodasi tabiiy ruhiy to'qinlanishni anglatadi, bu Zeboning ta'sirchan va hissiyotga boy tabiatini ochadi. Yakunidagi "U baxtiyor edi" jumlasini alohida badiiy-estetik ahamiyatga ega. U butun ruhiy jarayonning umumlashmasi hisoblanadi. Muallif qahramonning baxti nimadalgini alohida izohlamaydi, chunki oldingi psixologik tasvirlar Zeboning baxti moddiy sharoitda emas, insonlar bilan o'zini ma'naviy birlikda his etishida ekanini anglatadi.

Umuman olganda, muallif nutqi psixologik tasvir, emotsional-ekspressiv vositalar, ramziy detal va ichki monolog elementlari orqali Zeboning xarakterini chuqur ochib beradi. Natijada qahramonning sodda, samimiy, mehribon va ruhiy jihatdan pok inson ekani tabiiy hamda ta'sirchan shaklda namoyon bo'ladi.

Yasunari Kavatani "Mehrqush" va Shukur Xolmirzayevning "Baxtli bo'linglar" hikoyalari muallif nutqi orqali xarakter yaratish mahorati jihatidan o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga ega. Har ikki hikoyada ham muallif qahramonlarning ichki dunyosini bevosita izohlashdan ko'ra, ruhiy holat, detal, peyzaj hamda ramziy obrazlar vositasida ochib beradi. Shu jihatdan ikki asarda ham muallif nutqi psixologik xarakter yaratishning asosiy vositasiga aylangan. Qahramon xarakterini yaratishda nutqning roli haqida fikr yuritir ekan, M. R. Boboxonov badiiy asar tahlilida aksariyat qahramon nutqiga e'tibor qaratilib, hikoyachi nutqi nazardan chetda qolishini alohida qayd etadi [11:26–28]. Uning fikricha, hikoyachi nutqi epik asar nutqiy strukturasi muhim tarkibiy qismi bo'lib, syujet harakati, voqealar rivoji, qahramon holati va ichki dunyosi haqidagi tasavvurni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, roviy va hikoyachi nutqi kitobxon bilan tasvirlangan olam o'rtasida vositachi vazifasini bajarib, qahramonning xatti-harakati hamda ruhiy kechinmalarini ishonchli idrok etishga yordam beradi. Demak, qahramon xakteri faqat uning bevosita nutqi orqali emas, balki muallif, roviy va hikoyachi nutqlari bilan bog'liq holda shakllanadi.

Har ikki hikoyada markaziy ayol obrazlari – Zebo va Yosiko – ruhiy sezgirlik, mehrga ehtiyoj va samimiy insoniy munosabatlarga intilish kabi fazilatlar orqali gavdalandiriladi. Mualliflar mazkur qahramonlarning xarakterini bevosita izoh yoki ochiq psixologik ta'riflar orqali emas, balki ularning tashqi voqelikka munosabati, atrofdagilar bilan aloqasi hamda ichki kechinmalarining badiiy ifodasi orqali ochib boradilar. Shu jihatdan Zebo ham, Yosiko ham oilaviy muhitda mehr, totuvlik va ruhiy yaqinlik istovchi obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Ularning xarakterida insonlar o'rtasidagi oqibat, samimiyat va ma'naviy birdamlikka bo'lgan ehtiyoj yetakchi psixologik belgi sifatida ko'zga tashlanadi.

Har ikkala adibda ham muallif nutqi badiiy qahramon ruhiyatini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Yozuvchilar qahramonning ruhiy holatini ichki monolog va tashqi tasvir uyg'unligida ochadilar. "Baxtli bo'linglar"da Zebo yolg'izlikni his qilsa-da, bu tuyg'u fojiaiy tus olmaydi, aksincha, uning insonlarga baxt tilashi ruhiy komillik, beg'uborlik belgisi sifatida aks etadi. "Mehrqush"da esa Yosikoning ruhiy kechinmalari oilaviy ziddiyatlar bilan bog'liq holda tasvirlanadi, shuning uchun uning xarakteriga xos jihatlar nisbatan murakkabroq psixologik qatlamga ega. Chunki Yosiko ongida ertangi turmushi haqida tashvishli va shubhali tasavvurlar borligi seziladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Виноградов В. В. Проблема авторства и теория стилей. – М.: Государственное издательство художественной литературы, 1961. – С. 601; Винокур Г. О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991; Федоров А. Язык и стиль художественного произведения. – М.; Л.: Государственное издательство художественной литературы (ГИХЛ), 1963.
2. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва; Augsburg: Im Werden Verlag, 2002. – С. 181–190.
3. Федоров А. Язык и стиль художественного произведения. – М.; Л.: Государственное издательство художественной литературы (ГИХЛ), 1963. – С. 123–142.
4. Solijonov Y. Badiiy nutq poetikasi. – 2023. – B. 4.
5. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. – Toshkent: Fan, 1965. – 226 b.; Rahimov A. O'zbek romani poetikasi (syujet va konflikt): filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 1993. – 52 b.; To'rayev D. Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi (60–80-yillar): filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 53 b.; Imomova G. Tipik milliy xarakter yaratishda badiiy nutqning roli: filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1993. – 25 b.; Rahimov Z. Odil Yoqubovning «Ko'hna dunyo» romani poetikasi: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2000. – 137 b.
6. Kinsui S. Virtual Japanese: Enigmas of Role Language. – Osaka: Osaka University Press, 2017. – P. 96. – URL: [https://ir.library.osaka-u.ac.jp/repo/ouka/all/67215/OUHSS\\_SK.pdf](https://ir.library.osaka-u.ac.jp/repo/ouka/all/67215/OUHSS_SK.pdf)
7. Solijonov Y. Qahramon portreti va muallif nutqi // O'zbek tili va adabiyoti. – 2013. – № 4. – B. 31.
8. Watson M. Japanese Narrative // Routledge Encyclopedia of Narrative Theory / eds. D. Herman, M. Jahn, M.-L. Ryan. – London; New York: Routledge, 2005. – P. 265–266.
9. Kavabata Ya. Oq gullar: hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
10. Xolmirzayev Sh. Saylanma. I jild. – Toshkent, 2003.
11. Boboxonov M. R. Hozirgi o'zbek romanlari strukturasi psixologizm muammosi: filol. fan. doktori (DSc) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.